

# IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA MAHALLIY BYUDJETLAR DAROMAD MANBALARINI TAKOMILLASHTIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11404058>

**Shoydaliyev Umid Eshquvat o'g'li**

*Termiz davlat universiteti,*

*"Moliya va moliyaviy texnologiyalar"*

*kafedrasi o'qituvchisi (erkin tadqiqotchi)*

**Annotatsiya:** Maqolada mamlakat soliq tizimidagi muammolar, iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida mahalliy byudjetlarning daromad bazasini tubdan mustahkamlash, soliq salohiyatini kengaytirish, daromadlarini shakllanishi va daromadlarning asosiy yo'nalishlarini belgilash masalalari yoritilgan.

**Tayanch so'zlar:** Daromad siyosati, soliq tizimi, mahalliy byudjet, davlat byudjeti, mahalliy soliqlar ob'ekti, mahalliy byudjetni rejalashtirish, mahalliy soliqlar.

Mamlakatimizda byudjet va ijtimoiy siyosatning uyg'unligini ta'minlash maqsadida bugungi kunda moliya tizimining sohalarini, jumladan byudjet tizimini va ayniqsa, uning tarkibiy qismi hisoblangan mahalliy byudjetlarni samarali boshqarish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Daromad siyosatini ishlab chiqishda byudjet tizimida soliq va to'lovlarni mobilizatsiya qilish bo'yicha hududlar imkoniyatlarini ob'ektiv baholash, mahalliy byudjet daromadlarining shakllanish mexanizmlariga ta'sir etuvchi omillar samaradorligini oshirish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarni baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 iyunda "Mahalliy byudjetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5075-sun Farmoni qabul qilindi. Farmonga asosan aholining real daromadlari, turmush darajasi va sifatini oshirish maqsadida hududlarni kompleks rivojlantirishni barqaror moliyalashtirilishini ta'minlash, markaz byudjetiga qaramlikni keskin kamaytirish, byudjetlararo munosabatlarni tubdan isloh qilish orqali mahalliy byudjetlar mablag'larini boshqarishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining mustaqil ish olib borishini kuchaytirish mamlakat byudjet siyosatining asosiy vazifalari etib belgilandi.

Mahalliy byudjetlar daromad siyosatining muhim yo‘nalishlari 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq hamda mahalliy byudjetlar soliqli daromad bazalarini tubdan mustahkamlash, uning yuqori turuvchi byudjetlar ajratmalariga qaramligini qisqartirish maqsadida mahalliy byudjetlarni kompleks rivojlantirish barqaror moliyalashtirilishini ta’minlash, markaz byudjetiga qaramlikni keskin kamaytirish, byudjetlararo munosabatlarni tubdan isloh qilish orqali mahalliy byudjetlar mablag‘larini boshqarishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining mustaqil ish olib borishini kuchaytirish mamlakat byudjet siyosatining asosiy vazifalari etib belgilangan.

Mahalliy byudjetlarning daromad bazasini tubdan mustahkamlash va nomarkazlashtirish asosida hududlarni kompleks rivojlantirishni barqaror moliyalashtirish, byudjetlararo munosabatlarni yanada takomillashtirish, mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ko‘maklashish, yangi ish joylari yaratish hamda aholi bandligini ta’minlash, muhandislik-kommunikatsiya, yo‘l-transport va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish hisobiga soliq salohiyatini kengaytirish bo‘yicha aniq maqsadga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda ularning mas’uliyatini oshirishni ta’minlash asosiy maqsadimizdir.

Mamlakat soliq tizimidagi muammolar iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalashning chuqurlashib borishiga mutanosib ravishda bosqichma-bosqich bartaraf etib borilmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti ta’kidlaganidek, “Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o‘sishning yuqori sur’atlarini saqlab qolish, jumladan, Davlat byudjeti barcha darajada mutanosib, milliy valyuta va ichki bozordagi narx darajasi barqaror bo‘lishini ta’minlash – eng muhim ustuvor vazifamizdir. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida byudjet masalasi juda muhim va murakkab masala bo‘lib hisoblanadi. Har bir hududning rivoji, aholisining turmush sharoiti, ijtimoiy himoya, kam ta’minlangan oila va shaxslarni yetarli darajada ijtimoiy himoya qilish, har bir hududdagi davlat hokimiyati organlarining moliyaviy masalalarini to‘g‘ri hal qila bilishga bog‘liqdir.

Mahalliy soliqlar va yig‘imlar o‘ziga xos tarzda klassifikatsiya qilinadi. Bunda ular davlat hokimiyyati organlari va mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari vakolatiga, o‘zlarining fiskal ahamiyatiga va amal qilish davriga qarab ikkiga bo‘linishi mumkin:

- 1) qonunchilik hokimiyyat organi tomonidan joriy yetiladigan va mamlakatning barcha hududlarida amal qiladigan mahalliy soliqlar va yig‘imlar;
- 2) mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlarining qaroriga muvofiq joriy etiladigan mahalliy soliqlar va yig‘imlar.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalashning hozirgi davrida hududlarni moliyaviy barqarorligini ta’minlashda mahalliy byudjetlarning ahamiyati yanada ortmoqdaki, ushbu maqsadda mahalliy byudjetlarni daromadlar bazasini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada qabul qilingan keyingi me’yoriy-huquqiy hujjat O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 dekabrda PF-5283-sonli “Mahalliy davlat hokimiyyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy byudjetlarga tushumlarning to‘liqligini ta’minlash bo‘yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Farmoni mahalliy byudjetlar darajasida soliq-byudjet siyosatining ustuvor vazifalarini belgilab berdi. Jumladan:

- soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarining aniq turlarini ularga biriktirib qo‘yish orqali mahalliy byudjetlarning daromad bazasini tubdan mustahkamlash;
- viloyatlar, shahar va tuman byudjetlarini subvensiyadan chiqarish, ularning yuqori turuvchi byudjetlar ajratmalariga bo‘lgan karamligini bosqichma-bosqich qisqartirish, buning asosida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalarini hal etishda mahalliy davlat hokimiyyati organlari erkinligi va mas’uliyatini oshirish;
- mahalliy byudjetlarning daromadlarini oshirish uchun tizimli asosda qo‘srimcha rezervlarni aniqlab borish;
- mahalliy byudjetlar daromadlar bazasini mustahkamlash hamda xarajatlarining tasdiqlangan parametrlarini o‘z vaqtida, maqsadli moliyalashtirish, ijtimoiy soha ob’ektlari va infratuzilmani yanada rivojlantirish va tegishli darajada saqlab turishni

ta'minlash ustidan mahalliy davlat hokimiyati organlari, moliya va soliq organlarining javobgarligini kuchaytirish.

Yuqorida ko'rsatib o'tilganlardan kelib chiqib shuni alohida ta'kidlash joizki, mahalliy boshqaruv organlari faoliyatining asosiy pritsiplaridan biri uning moliyaviy mustaqilligi bo'lib, mahalliy byudjetlar soliqli daromad bazalarini mustahkamlamasdan, uning imkoniyatlari darajasi yetarliliginu ta'minlamasdan, mazkur prinsipga rioya qilish mumkin emas. Shu boisdan, mahalliy byudjetlarning soliqli daromadlar bazasini mustahakamlash hamda barqaror daromad siyosati motivatsiyasi muhim ahamiyatga ega.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 104 b.
2. "Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy byudjetlarga tushumlarning to'liqligini ta'minlash bo'yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2017 yil 13 dekabrdagi PF-5283 –sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 iyundagi «Mahalliy byudjetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5075-sonli Farmoni.
4. Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son farmoni.
5. Кобулов Х. А. ОБЕСПЕЧЕНИЯ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ МЕСТНЫХ БЮДЖЕТОВ ПУТЕМ УЛУЧШЕНИЯ ФИНАНСОВОГО ПОТЕНЦИАЛА РЕГИОНА //СОВРЕМЕННАЯ НАУКА: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И. – 2020. – С. 47.
6. Kobulov K. МЕТОДОЛОГИЯ ОЦЕНКИ НАЛОГОВОГО ПОТЕНЦИАЛА ТЕРРИТОРИИ //Архив научных исследований. – 2020. – Т. 35.
7. Kobulov K. НАЛОГОВЫЙ ПОТЕНЦИАЛ РЕГИОНА В КОНТЕКСТЕ ИНСТИТУЦИОНАЛИЗАЦИИ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ //Архив научных исследований. – 2020. – Т. 35.
8. Kobulov K. СТРАТЕГИЯ РАЗВИТИЯ ДОХОДНОГО ПОТЕНЦИАЛА РЕГИОНА В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ //Архив научных исследований. – 2020. – Т. 35.